



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoirra Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar)	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

MUNDARIJA SOÐERJAHNIE CONTENTS

O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati	202
Baymanova Feruza Abralovna	
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari	207
Xayitova Ulfatoy Tursunovna	
Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	211
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi	216
Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li	
Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы	225
Шахноза Холмуродова Зоир кизи	
O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli	234
Farsaxonova Mastura Jalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli	241
Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi	
Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi	244
Sitara Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi	



YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI



Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti

Annotatsiya: Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda shaxs rivojlanishidagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar aniqlashtirilgan. O'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish hamda hamkorlikka yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarining ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, yuqori sinf o'quvchilari, pedagogik mexanizmlar, shaxs ijtimoiylashuvi, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, jamoaviy faoliyat.

Abstract: Pedagogical mechanisms for developing social activity among senior school students are analyzed from a scientific and theoretical perspective. The study examines the essence of the concept of social activity, its structural components, and its role in personal development based on scientific literature. In addition, pedagogical, psychological, and social factors influencing the development of social activity among senior school students are identified. The importance of innovative pedagogical technologies, interactive methods, project-based learning, and collaborative educational approaches in fostering students' social activity is substantiated. The research findings have significant scientific and practical value in improving pedagogical mechanisms aimed at enhancing students' social activity within the educational process.

Key words: social activity, senior school students, pedagogical mechanisms, personality socialization, innovative education, interactive methods, educational process, collaborative activity.

Аннотация: Педагогические механизмы формирования социальной активности у учащихся старших классов проанализированы с научно-теоретической точки зрения. На основе научных источников раскрыты сущность понятия социальной активности, её структурные компоненты и роль в развитии личности. Кроме того, уточнены педагогические, психологические и социальные факторы, влияющие на развитие социальной активности у учащихся старших классов. Обосновано значение инновационных педагогических технологий, интерактивных методов, проектного обучения и образовательных подходов, основанных на сотрудничестве, в формировании социальной активности учащихся. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования педагогических механизмов, направленных на повышение социальной активности учащихся в образовательном процессе.

Ключевые слова: социальная активность, учащиеся старших классов, педагогические механизмы, социализация личности, инновационное образование, интерактивные методы, образовательный процесс, коллективная деятельность.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy ta'limning muhim maqsadlaridan biri nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning ijtimoiy faol, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirishi hamda jamoaviy faoliyatda tashabbuskorlik ko'rsatishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning ijtimoiy faolligi uning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi (Kon, 1967; Андреева, 2001). Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiy faolligi uning motivatsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarga munosabati hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga bo'lgan ehtiyoji bilan ham belgilanadi (Божович, 2008).

Pedagogika fanida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish masalasi shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv jarayoni hamda ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. A.V. Mudriknig ta'kidlashicha, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida uning ijtimoiy faolligi shakllanib, bu jarayon ta'lim muassasasi, oila va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi (Мудрик, 2004). Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqori sinf o'quvchilari o'smirlikdan ilk yoshlik davriga o'tish bosqichida bo'lib, bu davr shaxsning ijtimoiy qarashlari, qadriyatlari va fuqarolik pozitsiyasi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Mazkur davrda o'quvchilarda mustaqillik, ijtimoiy hayotga faol kirishish, jamoada o'z o'rnini topish hamda ijtimoiy muammolarga nisbatan munosabat bildirish ehtiyoji kuchayadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik mexanizmlarni qo'llash zarur hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda interfaol metodlar, hamkorlikka asoslangan o'qitish, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim hamda jamoaviy faoliyat shakllari muhim ahamiyat kasb etadi (Сластенин va boshq., 2002; Подласый, 2006). Mazkur pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi hamda jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, uning nazariy asoslari hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish muammosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki, jamoaviy faoliyatga jalb etilishi, ijtimoiy muammolarga nisbatan ongli munosabat bildirishi hamda ijtimoiy qadriyatlarni amaliy faoliyatda namoyon etishi bilan tavsiflanadi.

Sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida shakllanishi bilan izohlanadi. Xususan, I.S. Kon shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida uning ijtimoiy tajriba orttirishi, ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi (Kon, 1967). G.M. Andreeva esa ijtimoiy faollikni shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan ijtimoiy xulq-atvor shakli sifatida talqin qiladi (Андреева, 2001).

Shaxs faolligi va motivatsiyasi masalalari psixologik tadqiqotlarda ham keng o'rganilgan. L.I. Bojovich shaxs rivojlanishida motivatsion omillarning muhim rol o'ynashini qayd etib, shaxsning ijtimoiy faolligi uning ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi (Божович, 2008). Shu bilan birga, A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxsning ijtimoiy xulq-atvori ijtimoiy muhit, kuzatuv va tajriba orqali shakllanadi (Bandura, 1986).

Pedagogika fanida esa o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi. V.A. Slastenin va uning hamkorlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy faolligini rivojlantirish, ularni jamoaviy faoliyatga jalb etish hamda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi (Сластенин va boshq., 2002). I.P. Podlasiy ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini rivojlantirish interfaol metodlar, hamkorlikka asoslangan o'qitish hamda muammoli ta'lim orqali amalga oshirilishini qayd etadi (Подласый, 2006).

Shuningdek, A.V. Mudrik ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ijtimoiy muhit, ta'lim muassasasi, oila va tengdoshlar guruhining o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi (Мудрик, 2004). Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirish kompleks pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligini shakllantirish samaradorligi ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarni jamoaviy va ijtimoiy faoliyatga jalb etish hamda ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxs faoliyati nazariyasi, ijtimoiylashuv nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik hodisalarni tahlil qilishda tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida ijtimoiy faollik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda shaxs rivojlanishidagi o'rni o'rganildi. Bu metod yordamida mavzu doirasida mavjud nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar va ilg'or tajribalar tahlil qilinib, tadqiqot muammosining nazariy asoslari aniqlashtirildi.

Taqqoslash metodi yordamida turli ilmiy manbalarda ijtimoiy faollik tushunchasining talqini, uni shakllantirish omillari hamda pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlari aniqlab olindi. Ushbu metod orqali turli olimlarning fikrlari o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid eng samarali pedagogik yondashuvlar ajratib ko'rsatildi.

Umumlashtirish metodi esa o'rganilgan ilmiy manbalar hamda pedagogik kuzatishlar natijalarini tizimlashtirish va umumiy xulosalar chiqarishda qo'llanildi. Mazkur metod orqali ijtimoiy faollikni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatish metodi ta'lim jarayonida o'quvchilarning jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki, tashabbuskorligi, o'z fikrini erkin ifodalashi hamda ijtimoiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini o'rganish maqsadida qo'llanildi. Kuzatish jarayonida o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatdagi xulq-atvori, jamoa bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalari hamda ijtimoiy muammolarga nisbatan munosabatlari tahlil qilindi. Bu esa o'quvchilarda ijtimoiy faollik namoyon bo'lishining amaliy jihatlari aniqlash imkonini berdi.

Nazariy tahlil metodi yordamida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga oid ilmiy konsepsiyalar, pedagogik yondashuvlar hamda metodik tavsiyalar tahlil qilindi. Mazkur metod tadqiqot muammosining nazariy asoslarini aniqlash, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Mazkur metodlarning kompleks qo'llanilishi yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari chuqurroq o'rganish, uning pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ta'lim jarayonida samarali qo'llash imkoniyatlarini asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish ko'p omilli va murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ularning ijtimoiy tajribasi, ta'lim muhitining xususiyatlari hamda pedagogik ta'sir mexanizmlarining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllandigan muhim sifat hisoblanadi. I.S. Konning fikriga ko'ra, shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni o'zlashtirib, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida shakllanadi (Kon, 1967). Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ta'lim jarayonining ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi.

G.M. Andreeva ham ijtimoiy faollikni shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faol ishtiroki bilan izohlaydi va shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri uning ijtimoiy xulq-atvori hamda faolligini belgilashini ta'kidlaydi (Андреева, 2001). Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarga faol kirishishi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda tashabbus ko'rsatishi uchun qulay pedagogik muhit yaratish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim hamda hamkorlikka asoslangan o'qitish shakllari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini hamda jamoaviy faoliyatdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jihat V.A. Slastenin va I.P. Podlasiy tomonidan ham ta'kidlanib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarurligi qayd etilgan (Сластенин va boshq., 2002; Подласый, 2006).

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda maktabdagi ijtimoiy-psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga jalb etilishi hamda ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhim omillar hisoblanadi. Ijobiy pedagogik muhit o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashiga, ijtimoiy jarayonlarga faol munosabat bildirishiga hamda jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning axborot olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijtimoiy jarayonlarga bo'lgan qiziqishini oshirishga hamda turli ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish samaradorligi ta'lim jarayonining mazmuni, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy muhit hamda o'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili hamda olib borilgan nazariy tahlillar asosida ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, ijtimoiy munosabatlarga ongli ravishda kirishishi, jamoaviy faoliyatda tashabbus ko'rsatishi hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qaratilgan faoliyati orqali namoyon bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiylashuvi jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon ta'lim muassasasi, oila hamda ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ayniqsa, maktab muhitida o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga jalb etilishi, turli ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etishi hamda ijtimoiy muammolarni muhokama qilish jarayonida faol qatnashishi ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayoni bir necha tarkibiy komponentlar asosida namoyon bo'lishi aniqlashtirildi. Jumladan, kognitiv komponent o'quvchilarning jamiyat, ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy munosabatlar haqidagi bilimlarini ifodalaydi; motivatsion komponent esa ularning ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qiziqishini aks ettiradi.

Emotsional-qadriyatli komponent o'quvchilarning ijtimoiy qadriyatlarga munosabati hamda ijtimoiy mas'uliyat hissi bilan tavsiflanadi. Faoliyat komponenti esa o'quvchilarning jamoaviy, ijtimoiy va jamoatchilik faoliyatlaridagi amaliy ishtiroki orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda pedagogik mexanizmlarning samarali tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar hamda hamkorlikka asoslangan o'qitish shakllari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini faollashtiradi. Bunday pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitish bilan birga, ularning ijtimoiy mas'uliyat hissini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda ta'lim muassasasidagi ijobiy ma'naviy-psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik hamda o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday muhit o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashiga, jamoa bilan samarali hamkorlik qilishiga hamda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayoni innovatsion pedagogik yondashuvlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda jamoaviy faoliyatni tashkil etish orqali samarali amalga oshirilishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning jamiyat hayotida faol, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qiladi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni jamoaviy faoliyatga keng jalb etish hamda ijtimoiy muammolarni muhokama qilishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning jamiyat hayotida faol, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduraxmonova M., Fayozov A. Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda ijtimoiy ish masalalari // Research Focus. – Uzbekistan, 2022. – Volume 1, Issue 1. – P. 303–308.
2. Egamberdiyeva T.A. Ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2006. – 224 b.
3. Jumayev A.Sh. Ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: ped. fan. nomz. dis. – T.: TDPU, 2009. – 184 b.
4. Qodirova Z.R. va boshqalar. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. – 10–11 b.
5. Quranboyev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida): ped. fan. nomz. dis. – T.: O'zPFITI, 2000. – 155 b.
6. Safarbuyayeva I.R. Yoshlar shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanishning pedagogik asoslari: ped. fan. nomz. diss. – T.: O'zPFITI, 2006. – 145 b.
7. Tojiboyeva X.M. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi: diss. – T., 2018-y.
8. Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil): fal. fan. dok. dis. – T., 2006. – 316 b.
9. Бочарова Е.Е. Взаимосвязь субъективного благополучия и социальной активности личности: кросскультурный аспект // Социальная психология и общество. – 2012. – № 4. – С. 53–63.
10. Григорьев А.В. Мотивация социальной активности молодежи // Известия Саратовского университета. Серия: Философия. Психология. Педагогика. – 2012. – Т. 12. – № 3. – С. 66–69.
11. Палаткина Г.В., Азизова Л.В. Структурные компоненты социальной активности // Теория и практика общественного развития. Педагогические науки. – 2012. – № 7. – С. 85–87.
12. Шамионов Р.М., Григорьева М.В. Психология социальной активности молодежи: проблемы и риски. – Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 2012. – 384 с.
13. Ядов В.А. Социологическое исследование: методология, программа, методы. – Москва: Наука, 1995.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.